XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-avgust VII-11-73-4-58-K/25 Qamashi tumani

Qamashi tumanidagi geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risida

Qamashi tumanidagi geografik obyektni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 13-iyundagi 05-19-9407-son yig‘ilish bayoniga ko‘ra hududdagi geografik obyektni qayta (ko‘chani) nomlash haqidagi taklifi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 13-iyundagi 05-19-9507-son ekspert xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 13-iyundagi 05-19-9507-son ekspert xulosasiga asosan Qamashi tumani hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan 1 ta geografik obyektni (ko‘chani) qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Qamashi tumanida qayta nomlanayotgan geografik obyektning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mahallar uyushmasi tuman bo‘limi (Bekmurzayev)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi nomi o‘zgargan geografik obyektni nomini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklansin.

4. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolari yig‘inlari raisiga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan 1 ta geografik obyektni (ko‘chani) qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Rahimov)ga qayta nomlangan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Tumanda qayta nomlangan ko‘cha nomini O‘zbekiston Respublikasi Geografik obyektlari nomlari Davlat reyestriga (o‘zgartirish) kiritish haqida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga ma’lumot taqdim qilish tuman hokimining maslahatchisi N.Ro‘ziyeva zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Haydarov hamda xalq deputatlari tumani Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Xudoyberdiyeva) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  USMONOV XURSHID ABDUKARIMOVICH

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 14-avgustdagi
VII-11-73-4-58-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumanida qayta nomlanayotgan geografik obyektning ro‘yxati

T/r	Geografik obektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Ibn Sino mahallasi	Qatortol	Samo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq